



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI



LANDTECH




TOSHKENT DAVLAT
AGRAR UNIVERSITETI

“QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DARAJASINI OSHIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI”

mavzusidagi
RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ANJUMANI

materiallari
TO‘PLAMI



tdau_rasmiy_



TDAU.UZ



tuag-info@edu.uz



tdau.uz



@tdauuz_bot

**QISHLOQ XO'JALIGI MASHINASOZLIK TARMOG'IDA ILM-FAN VA
ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI: INNOVATSION
ISHLANMALARNI LOYIHALASH, ISHLAB CHIQRARISH VA JORIY QILISH**

<i>To'xtaqo'ziyev A., Rasuljonov A. R.</i> Osma chizel kultivatorning ishlov berish chuqurligini nazoratlash va boshqarish qurilmalari.....	14
<i>Жахонгиров А.</i> Кузги буғдой экиш учун ишлаб чиқилган инновацион сеялка ва уни жорий қилиш долзарблиги.....	18
<i>Abdug'aniyeva Sh. Z., Abduganiyev Z.</i> Qorako'l terisi gelioquritgich qurilmasi parametrlarini asoslash.....	22
<i>Musirmonov Sh. U.</i> Yuqori texnologiyali qishloq xo'jaligi mashinalari uchun dasturiy ta'minot va boshqaruv tizimlari yaratish.....	27
<i>Аманов А. К.</i> Интенсив боғларнинг турли кенгликдаги қатор ораларига ишлов берувчи қурилма конструкциясини танлаш.....	31
<i>Аманов А. К.</i> Интенсив боғ қатор ораларига ишлов беришда дискли ишчи органларни самарадорлиги	35
<i>To'xtaqo'ziyev A., Xalilov M. M., Samsaqova H. B.</i> Pushta olishda organo-mineral o'g'itlar birikmasini soladigan mashina.....	38
<i>Хушвақтов Ҳ. О.</i> Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш тарихидан	40
<i>Irisov X. D., Usmonaliyeva R. I., Abdunazarov K. A.</i> Purkash dispersligini tadqiqot qilish metodikasi.....	45
<i>Росабоев А.Т., Мингбойева М.</i> Қишлоқ хўжалик экинлари уруғини саралашнинг ҳозирги ҳолати ва ривожлантириш истикболлари.....	49
<i>Ахметов А.А., Алланазаров М.А.</i> Почвообрабатывающее орудие с инновационным рабочим органом.....	55
<i>Ахметов А.А., Останов Ш.С., Алланазаров М.А., Камбарова Д.У.</i> Обоснования ширины захвата почвозасыпщика.....	60
<i>Тургунов З., Маринова Р. З.</i> Якка тартибда тупроққа ишлов бериш қурилмасининг конструктив тузилиши ва ҳисоби.....	65
<i>Халилов Р.Ж., Мирзаходжаев Ш.Ш., Усмонова Н.</i> Полиз уруғини экиш сеялкасини такомиллаштириш.....	70
<i>Толибаев А.Е., Горлова И.Г., Хазиев С.А.</i> Ресурсосберегающая техника для сбора пустынных кормовых растений.....	75
<i>Хаитбоев К.</i> Использование искусственного интеллекта и экспертных систем для оптимизации агротехнологий	83
<i>Худайқулов Р.Ф.</i> Лалми майдонларга ғалла экишдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари.....	87

Қурилма дискли ишчи органлар орасидаги кўндаланг ва бўйлама масофалар, ҳаракат йўналиши ва тикка нисбатан ўрнатилиш бурчакларини ўзгартириш имкониятига эга бўлиб, дискли иш органлари орасидаги кўндаланг масофа ўнг ва чап паралеллограмм раман 2 да устунлар маҳкамланган кронштейнлар ўнг ва чап томонларга суриш йўли билан ўзгартирилади.

Интенсив боғ қатор ораларига ишлов беришда сферик дискли ишчи органлардан фойдаланиш орқали тупроқ намлигини сақлаш, бегона ўтларни йўқ қилиш, тупроқ фракциясини яхшилаш ва сарф харажатни камлиги билан етиштираладиган мева тан нархига сезиларли таъсир кўрсатишни кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабётлар рўйхати

- 1.Q.V.Imomqulov., A.K.Amanov., E.E.Abdunazarov. Intensiv bog' qator oralariga ishlov berishning samarali usullari.Xalqaro ilmiy-texnik anjuman ilmiy ishlar to'plami.- Toshkent-2023. –B.-100-101
- 2.<https://www.ukrboard.com.ua/ru/>
3. ГОСТ 198-75 Детали сельскохозяйственных машин. Диски.
4. Тухтакузиев А., Худоёров А., Игамбердиев А. Теория движения частей почвы по рабочей поверхности сферического диска // Агро илм.–Тошкент, 2010.–№4. – Б. 34-38
- 5.Циммерман М.З. Рабочие органы почвообрабатывающих машин. - Москва: Машиностроение, 1978. - 296 с.

UO‘T 631.3.06

PUSHTA OLISHDA ORGANO-MINERAL O‘G‘ITLAR BIRIKMASINI SOLADIGAN MASHINA

A. To‘xtaqo‘ziyev– t.f.d., prof. (QXMITI), **M.M. Xalilov**– t.f.PhD, dotsent.,
H.B. Samsaqova– t.f.PhD, k.i.x. (AQXAI)

Annotatsiya. Maqolada Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti va Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan pushta olishda organo-mineral o‘g‘itlar birikmasini soladigan mashinaning texnologik sxemasi va ish jarayoni keltirilgan.


Kalit so‘zlar: pushta olish, organo-mineral o‘g‘itlar, o‘g‘it solish apparati, tayanch-harakat g‘ildirak, diskli egat ochgich.

Tuproqning unumdorligini oshirishda maqsadida organik o‘g‘itlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning tarkibida azot, fosfor, kaliy kabi mikroelementlar bisyor [1, 2].

Ko'p yillardan beri mavjud texnologiyaga ko'ra organik o'g'itlar gektariga 17-18 tonna miqdorida paxta va boshqa o'simliklar yetishtirilib kelayotgan maydonlarga yerni kuzgi shudgorlashdan oldin go'ng sochuvchi mashina va qurilmalar yordamida dala yuzasiga sochiladi. Undan keyin shudgorlash ishlari olib boriladi [1, 2].

Lekin sochilgan organik o'g'it yer yuzasida bir necha kun turib qolsa, uning tarkibidagi uglerod bilan azot havoga uchib ketadi va uning samaradorligi, ya'ni organik o'g'itning foydali xususiyatlari kamayadi. Bundan tashqari mavjud go'ng sochuvchi mashina va qurilmalar go'ngni dala yuzasiga bir tekisda taqsimlay olmaydi. Ularning go'ngni sochish notekisligi 25 foizdan yuqori va agrotexnik talablarga javob bermaydi [1, 2].

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va o'g'itning samaradorligini oshirish maqsadida, organik o'g'itni g'o'za ildizlari rivojlanadigan tuproq qatlamiga, ya'ni pushta tagiga lentasimon lokal sepib ketish texnologiyasi va uni amalga oshiruvchi yangi texnika vositalarini ishlab chiqishni talab etadi.



Pushta olishda bir yo'la organo-mineral o'g'itlar birikmasini soladigan qurilma ish jarayonining texnologik sxemasi

Agrokimyó fanining asoschisi akademik D.M.Pryanishnikov tuproq unumdorligini oshirish hamda o'simliklardan yuqori hosil olish uchun organik va mineral o'g'itlar birikmalari(kompost)ni qo'llanishi lozimligini ta'kidlangan [3].

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash

ilmiy-tadqiqot instituti hamda Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti olimlari tomonidan pushta olishda bir yo'la organik va mineral o'g'itlar birikmasini o'simlik ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamiga lokal solishni ta'minlaydigan qurilmaning konstruksiyasi ishlab chiqildi (rasmga qaralsin).

U rama 1, osish qurilmasi 2, tayanch va harakat olish g'ildiragi 3, konusli o'g'it sochgich 4, o'g'ito'tkazgich 5, o'g'it bunker 12 hamda sferik diskli pushta olgich 7 dan tashkil topgan. O'g'it bunker ostiga o'g'it solish apparati joylashgan bo'lib, u baraban 11, kurakcha 10, o'g'it chiqish darchasi 9 va o'g'it chiqishini me'yorlovchi qopqoq 8 dan iborat.

Uning texnologik ish jarayoni quyidagicha kechadi: o'g'it solish apparatining barabani zanjirli uzatma orqali tayanch-harakat g'ildiragidan harakat olib, o'g'it bunkeridagi o'g'itni belgilangan miqdorda kurakchalar yordamida chiqarish darchasi orqali chiqarib o'g'ito'tkazgichga tashlaydi. O'g'it o'g'ito'tkazgichdan o'g'it solish ish organidagi asosi ellips bo'lgan konusli ishchi organga tushib, undan ish organi oldida joylashgan egat ochgich yordamida ochilgan egat tubiga ma'lum kenglikda tasmasimon bo'lib tushadi. O'g'itlagich orqasiga joylashtirilgan diskli pushta olgichlar tuproqning yuzasi va ichiga solingan o'g'itlarni ko'mib, pushta hosil qilib ketadi.

Ushbu qurilmadan foydalanilganda tuproqning unumdorligi va ekinlar hosildorligi bir muncha oshirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjiyev A., Xaydarova Sh.Z. G'o'za qator oralariga organo-mineral o'g'itlarni lokal soluvchi soshnik o'g'it o'tkazuvchi bo'g'izining parametrini asoslash // Agro-ilm, №2 (65), 2020. – B. 99.

2. Niyazaliyev B.I. Organik o'g'itlarni har xil turlaridan samarali foydalanish omillari. – Toshkent: UzPITI, 2009. – B. 246-250.

3. Прянишников Д.М. Избранные сочинения. – Т.1. М: «Сельхозгиз», 1952. – С. 567.

УДК 94(575).112-25) КБК 63.3(5Ў)

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШТИРИШ ТАРИХИДАН

Х.О.Хушвақтов т.ф.ф.д., (PhD), (ТошДАУ)

Аннотация: Мақолада, 1925-30 йилларда совет ҳукуматининг Ўзбекистонда амалга оширган қишлоқ хўжалиги соҳасидаги сиёсати акс эттирилган. Шу билан бирга, қишлоқ хўжалиги учун машинасозлик саноатининг кириб келиши, қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва янги хўжалик техникаларининг кириб келиши жараёнларига оид маълумотлар